8-ma’ruza **Boshlang‘ich sinflarda koordinata burchagini o‘rganishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishga tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish.**

Kalit so‘zlar: *PISA Programme for International Student Assesment, PIRLS-Progress in International Reading and Literacy Study, TIMSS, TALIS–Teaching and Learning International Survey.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Xalqaro baholash dasturlari

1. PISA Programme for International Student Assesment – PISA *(inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini *(o‘qish, matematika, tabiiy fanlar)* hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan.

2. PIRLS-Progress in International Reading and Literacy Study – 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi orqali ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

3. TIMSS – The Trends in International Mathematics and Science Study - matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va

baholash tizimi. Bu tadqiqot o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich maktabning 4-sinfi va tayanch maktab 8-sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakat ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e’tirof etadi.

4. TALIS–Teaching and Learning International Survey – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta’sis etilgan. PISA nima? O‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi, targ‘ib qilmaydi va umumiy e’tirof etishni taqozo etmaydi.

Tadqiqot kim va qaysi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi? PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti - IHTT (inglizcha - OECD Organization for Economic Cooperation and Development) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yili o‘tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

PISA tadqiqotlari nima uchun har uch yilda o‘tkaziladi? PISAning asosiy vazifasi a’zo mamlakatlarni ta’lim siyosatiga oid ma’lumotlar bilan ta’minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo‘llabquvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o‘tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta’sirini hisobga olish uchun ma’lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o‘z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o‘z ta’lim tizimida kelajakda erishish ko‘zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi.

PISA tadqiqotlarida nega aynan 15 yoshli o‘quvchilar qatnashadi? Tadqiqot aynan 15 yoshli o‘quvchilar doirasida o‘tkazilishining asosiy sababi

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo aksariyat davlatlarda 15 yosh majburiy ta’lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

Savodxonlikni baholashda qanday kompetensiyalarga asoslanadi? Ushbu kompetensiyalarni o‘quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini aniqlashda qo‘llaniladigan kompetensiyalar quyidagicha:

1. Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi.

2. Ilmiy-tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi.

3. Ma’lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi. Funksional savodxonlikni baholash modeli.

Funksional savodxonlikni baholash modeli





Kontekst nima? Kontekstlar - PISA topshiriqlarining asosi sanaladi. Kontekst hayotiy muammoli vaziyatlar aks etgan topshiriqlardir. O‘z navbatida, kontekstlar shaxsiy, mahalliy va milliy (global) darajalarga bo‘linadi.

PISA topshiriqlari darajalariga qanday talablar qo‘yiladi? Topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan intellektual va fikrlash qobiliyatiga ko‘ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

1. Quyi daraja - bir bosqichli amallar.

2. O‘rta daraja - hodisalarni tavsiflash.

3. Yuqori daraja - murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish. Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS hamda EGRA, EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O‘zbekistonning ham birinchi

marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi koʻzda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA oʻquvchilarni baholash dasturi reytingi boʻyicha jahonning birinchi 30 ta ilgʻor mamlakati qatoriga kirishiga erishish boʻyicha vazifalar belgilangan. PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik koʻrish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiytadqiqot instituti tomonidan “Stesting” loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va “Stesting” platformasi ishga tushirildi. Bu platforma oʻquvchilarning xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash koʻnikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni oʻz ichiga olgan. Unga 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik koʻrish, testlarni yechish koʻnikmasini shakllantirishga qaratilgan mazkur elektron platforma sentabr-oktabr oylarida muayyan maktablarda tajriba-sinovdan oʻtkazildi. Eng muhim jihatlardan biri ushbu platformadan foydalanish mutlaqo bepul. Bugunga qadar ushbu platformada 2,3 milliondan ortiq oʻquvchi roʻyxatdan oʻtgan va ularning diagnostik baholash natijalari tahlil qilingan. 2022-yilda Oʻzbekiston ilk bor PISA xalqaro tadqiqotda ishtirok etdi. Dunyo boʻyicha PISA tadqiqotlarida ishtirok etayotgan davlatlar tobora ortib bormoqda va ularning soni quyidagi jadvalda koʻrsatilgan.

1-jadval



Nazorat savollari:

1. Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?
2. PISA nima?
3. PISA tadqiqotlari nima uchun har uch yilda o‘tkaziladi?
4. PISA topshiriqlari darajalariga qanday talablar qo‘yiladi?
5. Savodxonlikni baholashda qanday kompetensiyalarga asoslanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun. Toshkent O’RQ-637-son. 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: O‘zbekiston, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-avgustdagi PQ4805-sonli qarori.

8. PISA-2018 O‘qish savodxonligi qamrov doirasi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi. Toshkent. 2021

9. PISA–2021 Mathematics Framework (second draft), 46th meyeting of the PISA Governing Board, 5-7 November 2018 Prague, Czech Republic.

10. PISA bo‘yicha qo‘llanma “O‘qituvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqod dasturi” haqida qo‘llanma “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo‘limi” Toshkent, 2019.

11. Shernazarov I.E., Berdiqulov R.Sh., Qoraxonova L.M., Akbarova S.R. Xalqaro baholash tadqiqotlari (zamonaviy pedagoglarga funksional savodxonlikni rivojlantirish biologiya fan misolida)//Oliy ta’lim muassasalarining tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi talabalari uchun qo‘llanma. 2023. -B. 200.
12.Shernazarov I.E., Ismailov S.A., Salixova M.Q. Xalqaro baholash tadqiqotlari//Oliy ta’lim muassasalarining tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo‘nalishi talabalari uchun qo‘llanma. 2023. -B. 260.